

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>A.A.Каримов</b> Философия калама –рациональная основа средневекового исламского мировоззрения.....	203
<b>D.E.Normatova</b> Islom islohchiligi (modernizm): diniy-falsafiy va siyosiy jihatlar.....	210
<b>B.E.Xusanov</b> Estetik tarbiya mohiyatining falsafiy tahlili.....	215
<b>N.M.Axmadiyev</b> Yoshlarning axloqiy, ma’rifiy, madaniy tafakkurini yuksaltirishda kekxa avlod tajribasidan foydalanishning ahamiyati.....	220
<b>N.N.Teshayev</b> Fuqarolik jamiyati rivojlanishining ijtimoiy-madaniy omillari .....	223
<b>K.G’.Kamolova</b> Ijtimoiy-gumanitar fanlar tizimida falsafaning o’rni .....	227
<b>M.M.Qaxxorova, B.Farfiev</b> Oila instituti mustahkamligining ijtimoiy-madaniy asoslari.....	232
<b>K.U.Sharipova</b> Jamiyatda gender tenglikning shakllanish jarayoni.....	240
<b>S.A.Xayrullayev</b> Jamiyat barqarorligida konsolidatsiya jarayonining konseptual asoslari.....	244
<b>O’.X.Rajabov</b> Maslahat – konsensusning sinergetik omili .....	248
<b>Sh.T.Abbosova</b> Milliy g’oya –insoniyatni barqaror taraqqiyot sari yetaklovchi kuch .....	251

---

СИЙОСАТ

<b>K.X.Avazov</b> Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	254
<b>A.A.Abdilxamedov</b> Huquqbuzarlik profilaktikasi tushunchasining mazmun-mohiyati va xususiyati.....	261
<b>B.Y.Paluaniyazov</b> Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizligiga ta’sir etuvchi tahdidlarning namoyon bo’lish xususiyatlari.....	265
<b>U.M.Kuranov</b> Globallashuv sharoitida missionerlikka qarshi kurashning ma’naviy – ma’rifiy ahamiyati .....	270

---

ТАРИХ

<b>Ma Jian, Vang Jianxin, M.Xasanov, Chen Aidong, Chjou Xinying, A.E.Berdimurodov, K.D.Arziyev</b> O’zbekistonning Samarqand vodiysi janubiy tomonidagi 2014-yilgi arxeologik dala qidiruv ishlari hisoboti.....	275
<b>M.X.Исамиддинов</b> Оборонительные стены Афрасиаба и основные этапы его развития.....	309
<b>X.Raxmatillayev</b> Turkistonda XIX asrning ikkinchi yarmidagi etnik jarayonlar .....	314
<b>F.X.Utayeva, P.Q.Sharipova, F.G’.Rahmatova</b> Mustaqillik yillarida Buxoro to’qimachilik sanoatida modernizatsiyalashuv jarayonlari .....	318
<b>N.S.Abdullayeva</b> Rossiya muzeylarida saqlanayotgan O’zbekiston madaniy merosi namunalari.....	324
<b>S.B.Xakimova</b> “Xulosat ul-ahvol” asari xususida.....	329
<b>Ш.Т.Темиров</b> Мухаммад Сиддик Хашмат, сын Эмира Музаффар (1864-1932) – жизнь и научное наследие .....	332

**MILLIY G'OYA –INSONIYATNI BARQAROR TARAQQIYOT SARI YETAKLOVCHI KUCH****НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕЯ – ВЕДУЩАЯ СИЛА ЧЕЛОВЕЧЕСТВА НА ПУТИ  
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ****THE NATIONAL IDEA IS THE LEADING FORCE OF HUMANITY TOWARDS  
SUSTAINABLE DEVELOPMENT****Abbosova Shoxidaxon Turdaliyevna<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchi**Annotatsiya**

*Mazkur maqolada jamiyat barqarorligini ta'minlashda milliy g'oya masalasining dolzarbligi ilmiy-falsafiy ahamiyati ochib berilgan. Milliy g'oya jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichida shaxs dunyoqarashining o'zgarishini yangicha yuksalish zarurligi o'rganilgan. Jamiyatdagi milliy g'oyaning jamiyat yuksalishidagi xususiyati barqarorlikni ta'minlashi ilmiy asoslangan.*

**Аннотация**

*В статье раскрывается научно-философское значение проблемы национальной идеологии в обеспечении стабильности общества. Необходимость нового взлета трансформации мировоззрения личности на новом этапе развития национального идейного общества. Научно обосновано, что особенностью национальной идеи в обществе на подъеме общества является обеспечение стабильности.*

**Abstract**

*This article reveals the scientific and philosophical significance of the issue of national ideology in ensuring the stability of society. At a new stage in the development of the national idea society, the need for a new rise in the transformation of the individual's worldview has been studied. It is scientifically based that the feature of the national idea in society in the rise of society is to ensure stability.*

**Kalit so'zlar:** Milliy g'oya, g'oya, jamiyat, barqarorlik, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, ma'naviy tahdid, taraqqiyot, yoshlar.

**Ключевые слова:** национальная идея, идея, общество, стабильность, национальные ценности, общечеловеческие ценности, духовная угроза, развитие, молодежь.

**Key words:** National idea, idea, society, stability, national values, universal values, spiritual threat, development, youth.

**KIRISH**

Jamiyatning taraqqiyoti va takomillashuvi jarayonlarining yuqori bosqichida yangi ijtimoiy-falsafiy qoidalar, hamda ijtimoiy guruhlarni qamrab olgan davlat hokimiyatining boshqaruvi organlaridan tarkib topgan murakkab bir tizim ko'rinishini o'zida mujassam etadi. Jamiyatning tarkibiy qismlari bir-biri bilan ham gorizontaal, ham vertikal tarzda chambarchas bog'langan, keng qamrovli yaxlit bir ijtimoiy organizm hisoblanadi. Shu sababli u asrlar mobaynida o'z barqarorligi, xavfsizligi hamda taraqqiyotini ta'minlashga xizmat qilib kelmoqda. Jamiyat barqaror va bardavom rivojlanishi uchun muayyan jamiyatda milliy g'oya mavjud bo'lishi, hamda muntazam ravishda faollik ko'rsatib turishi talab qiladi. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida: "...yoshlarni milliy qadriyatlarga hurmat, insonparvarlik va yuksak ma'naviy g'oyalar asosida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni mustahkamlash borasidagi ishlarni yanada rivojlantirish zarurati mavjud." [1.] Bu o'z navbatida-jamiyat barqarorligini ta'minlashda milliy g'oya ijtimoiy-falsafiy jihatdan tadqiq etish masalasining dolzarbligini bildiradi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI**

Jamiyatning beqarorlashish jarayoni, odatda, ijtimoiy munosabatlarining tarkibiy qismlaridan birida sodir bo'lgan salbiy o'zgarishlardan boshlanadi. Ya'ni tanazzul yuz berishi uchun ijtimoiy munosabatlarning barcha tarkibiy qismlarida parallel ravishda milliy-ma'naviy yemirilish jarayoni yuzaga keladi. Jamiyatning tarixiy elementlari, alohida individual biror-bir bunyodkorlik ishiga qodir emas. Ayrim, xususiy holatlarni hisobga olmaganda, jamiyatning yemirilishi sababsiz ro'y bermasligini e'tirof etish lozim. Jamiyatning yemirilishi murakkab ijtimoiy-madaniy va siyosiy jarayonlar sifatida muayyan omillarni o'z ichiga oladi. Tarixiy taraqqiyot shundan guvohlik beradiki, jamiyat o'z-o'zidan, ya'ni obyektiv yoki subyektiv sabablarsiz inqirozga yuz tutmaydi. Zero, jamiyat inson, shaxs, ijtimoiy guruhlar ilmiy tafakkuri, ijodi va xohish-irodasining natijasi sifatida, uning

taqdiri jamiyat a'zolari munosabatlariga bog'liq bo'ladi. Shu o'rinda jamiyatni, yaxshi yoki yomonga ajratib bo'lmaydi. Uni yaxshi qiladigan ham, aksincha, yomon qiladigan ham inson, shaxslar-aro muloqotda ijtimoiy-madaniy munosabatlarning natijadorligi hisoblanadi. Jamiyatning holati dunyoning qaysi parallelida joylashganligi, qaysi ijtimoiy tizimni joriy qilganligi, etnik yoki konfessional xususiyatiga emas, balki uning taraqqiyot yo'lida qanday siyosiy kuchlar va mafkuralar turganligi bilan bog'liq. Masalan, geografik nuqtai nazardan, bir-biriga o'xshash ikki yoki undan ortiq jamiyatlarda insonlarning hayot darajasi va kayfiyati har-hil bo'lishi tabiiy holatdir. Har qanday tushuncha yoki falsafiy kategoriyani ma'nosini va mohiyati boshqa tushunchalar yoki kategoriyalar vositasi yordamida ochiladi. O'zbek tilida chop etilgan g'oya va mafkura tushunchalari tahliliga bag'ishlangan asosiy adabiyotlarda g'oya tushunchasining mazmun-mohiyatini ochishda, ong kategoriyasi asos qilib olingan. Mazkur adabiyotlarda ong, shartli ravishda, ikkita katta qismga — insonning ruhiy va fikriy olamiga, ya'ni tafakkur olamiga ajratilib, g'oya tafakkur mahsuli sifatida tavsiflanadi. Xususan: "G'oya — inson tafakkurida vujudga keladigan, ijtimoiy xarakterga ega bo'lgan, ruhiyatga ta'sir o'tkazib, jamiyat va odamlarni harakatga chorlaydigan, maqsad-muddao sari yetaklaydigan kuchli, teran fikr," [2.484.] — deyilgan.

Jamiyat rivojlanishiga ta'sir qiladigan jarayonlardan biri — shaxslar-aro munosabatlarning sifat darajasi ko'rsatkichini oshishi hisoblanadi. Bu munosabatlarning umuminsoniy qadriyatlarga suyanishi, alohida ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy-madaniy munosabatlarning sifat jihatdan barqaror o'zgarishi jamiyatda "Milliy yuksalishdan — milliy tiklanish sari" g'oyasiga mos kelishi va jamiyatdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy kuchlarning o'zaro tarkib topgan munosabatlariga borib taqaladi. Shu ma'noda jamiyatimiz hayotida tarixan qisqa davrda shakllangan ijtimoiy barqarorlikning o'рни ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlarni o'tkazishni taqozo etadi.

Jamiyatimiz barqarorligi hamda xavfsizligida, eng muhimi rivojlanishga milliy g'oyaning bevosita ta'sirini tahlil qilish zarurati katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyat barqarorligi va xavfsizligini ta'minlashda har doim milliy g'oyaning o'ziga xos muvofiqlashtiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lib kelgan.

Milliy g'oyani ijtimoiy-falsafiy o'rganish masalasi globallashuv va axborot-kommunikatsiya asri deb nomlanayotgan XXI asrda o'z dolzarbligi bilan barcha davlatlar uchun muhim ahamiyat kasb etmoqda. Darhaqiqat, qaysiki jamiyatda milliy g'oya kuchli bo'lsa uning ijtimoiy qamrovi kengayib, o'zining muvofiqlashtiruvchi ta'sirini jamiyat rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa o'sha jamiyatning barqaror va xavfsizlik sohalaridagi yuksalishini namoyon qiladi.

Jamiyat barqarorligini ta'minlashda milliy g'oya masalasining dolzarbligi moddiy va ma'naviy farovonlikni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Bu jamiyatning har bir ijtimoiy qatlam vakillarini jalb qila olish qobiliyati va shu orqali barcha jabhalarga o'z ta'sirini o'tkaza olishi jamiyatning ijtimoiy maqomini ortishini ko'rsatadi. K. Popper ta'biri bilan aytganda: "Biz ilmiy tadqiqotda, amaliy faoliyatimizda shunday nazariyalarni tanlaymizki, ular boshqa nazariyalar bilan raqobatda o'zini oqlay biladi va "tabiiy tanlanishida" yashab qolishga yaroqli bo'ladi." [3.] Bu jamiyatni tanlash imkoniyatini ilmiy asoslash zarurati bilan ifodalanadi. Mamlakatning bir xil yo'nalishda yuksalmasligi mumkin emasligi kabi jihatlarini hisobga olgan holda munosabatda bo'lishi kerak bo'ladi. "Yuksalish jarayonning borishi ishtirokchilarning shaxsidan tortib to muayyan millat, mamlakat madaniyatining xususiyatlariga borib taqaladi" [4.55.] deb, xulosaga kelish mumkin. O'zbekiston taraqqiyotining Yangi rivojlanish bosqichida "shaxs-jamiyat-davlat" tizimidagi munosabatni aynan shu ijtimoiy-madaniy xususiyatlar yondashuvini talab etadi.

#### NATIJA VA MUHOKAMA

Milliy g'oya hamda ijtimoiy-falsafiy tafakkurning jamiyatga ta'sir yo'nalishlari va xususiyatlarini belgilash uchun, ularni maxsus bilish obyekt sifatida olib qarash juda katta ahamiyati kasb etadi. Xususan, milliy g'oyaning mohiyatini o'rganishda, nazariy bilimlar va amaliy faoliyatlar samaradorligini oshirish — birinchidan, umuminsoniy va milliy ma'naviy qadriyatlarning mushtaraklashgan ifodasi bo'lgan g'oyalarni tizimli-funksional o'rganishni rivojlantirish; ikkinchidan, g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarni tashkillashtirish, boshqarish va nazorat qilishda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning ilmiy usullari, hamda vositalari uyg'unlashuvini ta'minlash; uchinchidan, g'oyaviy-mafkuraviy munosabatlarning turli tarixiy shakllarini va muqobil yo'nalishlarini, ilmiy-nazariy bilish asosida muvofiqlashtirish talab qilinadi.

Milliy g'oya vatanparvarlikka, xalqning tarixiy xotirasiga, milliy o'zligini anglashiga tayanadi. "Bizning milliy g'oyamiz millatning, davlatning, yurtning qadr-qiyamatini yuksaltiradi, iqtisodiy, sotsial, siyosiy va ma'naviy salohiyatini yuzaga chiqaradi, oriyat va g'ururini asraydi, istiqbolini belgilaydi,

## FALSAFA

kelgusi taraqqiyot uchun yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi. Milliy g'oya o'zbek millatining o'ziga xosligi nimada ekanligini asoslab beruvchi ilmiy-nazariy va falsafiy qarashlar sistemasidir.”[5.26.]

Bugungi kunda mukammal ijtimoiy institut sifatida jamiyatda milliy g'oyaning tub unsurlari hisoblangan bag'rikenglik, ishbilarmonlik, mehnatga, kasb-hunarga moddiy, hamda ma'naviy boylik yaratishning bosh bo'g'ini sifatida qarash, o'zaro bir-biriga ko'maklashish, jamiyat manfaatlari, tarkib toptirish orqali barqarorligi va xavfsizligini har tomonlama rag'batlantirishda muhim omil sifatida qaraladi. Bu sohada amalga oshirilayotgan ishlarni Hukumatimiz va davlat rahbari tomonidan ishlab chiqilgan jamiyatni yangilash, demokratlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash va isloh qilish strategiyasi, jamiyatimiz kuch-qudrati, moddiy hamda intellektual salohiyatini oshirish, davlatimizning xalqaro maydonda obro'-e'tiborini yanada mustahkamlash vazifalari doirasida qarash maqsadga muvofiq bo'ladi.

Taraqqiy etgan davlatlarda milliy g'oya jamiyatda shaxslarni o'z o'rnini mustahkamlashga, uning ijtimoiy muvofiqlashtirish va jipslashtirish salohiyatiga bog'liq bo'lgan jarayonni ifodalaydi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasida jamiyat a'zolari faol fuqarolik pozitsiyasini oshirish orqali — milliy mas'uliyatini oshirish, ularning ongi va tafakkuriga, eng avvalo, Vatan tuyg'usini singdirish bo'yicha bir talay ishlar qilinmoqda. Bu borada turli jamoatchilik doiralari orasida tashabbuslar diqqatga sazovor. 2005 yildan boshlab e'lon qilingan rasmiy hujjatlarda: “Mamlakat iqtisodiy va siyosiy hayotida ishtirok etishi istiqboli bilan bog'liq muammolar, ushbu jarayonda davlatning liderlik maqomiga erishishi,” yoki “mamlakatda yuz berayotgan muammolarni biznes tomonidan tushunish zarurati, yangi iqtisodiyot va bozorni shakllantirish bo'yicha biznes va davlat o'rtasida konsensusga kelishning shart-sharoitlari,”[6]- singari muhim masalalar o'rin olgan.

Bizningcha, jamiyat barqarorligini ta'minlashda milliy g'oya masalasining dolzarbligi ijtimoiy-ma'naviy jihatdan ma'naviy tahdidga nisbatan qarshi kurashish sifatida namoyon bo'ladi. “Ma'naviy tahdid deganda, avvalo, tili, dini, e'tiqodidan qat'iy nazar, har qaysi odamning tom ma'nodagi erkin inson bo'lib yashashiga qarshi qaratilgan, uning aynan ruhiy dunyosini izdan chiqarish maqsadini ko'zda tutadigan mafkuraviy, g'oyaviy va informatsion hurujlarni nazarda tutish lozim.”[7.14.] Bugungi kunda mamlakatimizga qarshi qaratilgan mafkuraviy tahdidlar sifatida birinchidan, islom xalifaligini tiklab, uning bayrog'i ostida musulmon xalqlarni yangi imperiyaga birlashtirish yo'lidagi sa'yi-harakatlar, ikkinchidan, axloqsizlikni yoyib, xalqni ma'naviy jihatdan buzishga qaratilgan intilishlar, uchinchidan, turli mafkuraviy vositalar orqali mintaqaviy va davlatlararo mojarolar keltirib chiqarishga qaratilgan harakatlarni keltirishimiz mumkin.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jamiyatdagi turfa qatlamlarni manfaatlarini birlashtirishda milliy g'oyaning ilmiy asoslanganligi shaxslarning dunyoqarashini o'zgartirmasdan amalga oshirib bo'lmaydi. Jamiyat a'zolarining mulk, boylik orttirish va bu sohadagi professionalizm harakatlarini amaldagi natijasi jamiyat o'z-o'zini qayta ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligini ta'minlab shaxsiy fazilatlarini, dunyoqarashi va xulq-atvoriga jiddiy ta'sir qiladi. Jamiyat ma'naviy barqarorligining obyektiv va subyektiv omili sifatida ijtimoiy taraqqiyotda davlatning islohotchilik rolining asoslaydi. O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida shaxs ma'naviy tafakkurining o'zgarishi bilan yangicha hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar shakllanadi. Jamiyat va davlat barqarorligi uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan milliy g'oyani o'rganish o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 26 martdagi “Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5040-son Qarori. O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 09.10.2019 y., 06/19/5847/3887-son.
  2. Falsafa. Qomusiy lug'at — Toshkent: “Sharq”, 2004.
  3. Карл Поппер. Логика социальных наук. “Вопросы философии” // 1992. №10.
  4. Либман А. Конфликт государства и бизнес: постсоветский опыт // Свободная мысль — XXI.
- 2005. -С. 55.**
5. Тўраев Б., Раматов Ж. Миллий истиқлол ғояси: асосий хусусиятлари, фалсафий ва тарихий илдиэлари -Тошкент: “Ижод дунёси”, 2002.
  6. Государства и бизнес: союз за национальную модернизацию. 25.01.05.
  7. Исмоилов С., Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. –Гулистон 2018: